

№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalashning Moliyaviy Zarurligi va Ahamiyatini Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	<i>PRIMENENIE MCFO 17 V STRAHOVAY SISTEME UZBEKİSTANA: PERСПЕКТИVY VNEDRENIYA I POTEНCIALNYYE PROBLEMY. ANALIZ REZERBOV I ZAKONODATELNYX BARYEROV Baramtova Dinora Alisherovna</i>	6
3.	<i>SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	<i>O'ZBEKİSTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOTRANSPOST SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	<i>O'ZBEKİSTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	<i>PERСПЕКТИVY I BARYERY RAZVITIYA ISLAMSKOGO STRAHOVANIIA (TAKAFUL) V UZBEKİSTANE Myradova Dilgora Abdusaliyevna</i>	26
10.	<i>YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMIY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	<i>MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH Xolbaev Azamat Yuldashevich</i>	34
12.	<i>PREIMUЩESTVA STRAHOVANIE I EGO ROL' V EKONOMIKE Umurova Xurshida Olimjonsonovna</i>	38
13.	<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIALASH: HOMIYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH Dildora Bohodirovna Abdusattarovna</i>	42
14.	<i>SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHЛИI Tog'auniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	<i>ZELÉNIE OBLIGACII I KREDITY: NOVYYI VEKTOR USTOЙЧIVOGO PОСTA UZBEKİSTANA Gulyumkhamedova Dilbar Bahtiyer kizi, Karimov Komiljon Xamidovich</i>	48
16.	<i>ZELÉNAЯ EKOНОMICKA UZBEKİSTANA: PUT' K USTOЙЧIVOMU RAZVITIYU CTRANI Gulyumkhamedova Dilbar Bahtiyer kizi</i>	51

## “O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash markazi rahbari, dots.).
10. Quldashev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasni professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasni dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).



## YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalashning Moliyaviy Zarurligi va Ahamiyatni

Ametova Fotimajon Rozmatovna

Bank-moliya akademiyasi doktoranti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Sug'urta ishi" kafedrasini katta o'qituvchisi

[ffotima.ametova@gmail.com](mailto:ffotima.ametova@gmail.com)

DOI: [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss3/287](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/287)

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy munosabatlari va ularning asoslari o'rganilgan. Shuningdek, yangi iqtisodiyot sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va sharoitlar o'rganilgan va mavzu yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, ijtimoiy kafolat, sifatlari turmush tarzi, tibbiy sug'urta, iste'mol savati, tibbiy ko'rlik, ishsizlik.

**Abstract:** The article examines the financial relations and foundations of social protection of the population in our country. It also examines the new opportunities and conditions created for the population in need of social protection in the new economic environment, and presents conclusions and proposals on the topic.

**Keywords:** Social protection, social security, lifestyle, health insurance, consumer basket, medical examination, unemployment.

**Абстрактный:** В статье рассматриваются финансовые отношения и основы социальной защиты населения в нашей стране, рассматриваются новые возможности и условия, созданные для населения, нуждающегося в социальной защите, в новых экономических условиях, а также приводятся выводы и предложения по данной теме.

**Ключевые слова:** Социальная защита, социальное обеспечение, образ жизни, медицинское страхование, потребительская корзина, медицинское обследование, безработица.

### Kirish (Введение/Introduction).

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlarning barchasi mamlakatimiz Konstitutsiyasida kafolatlangan ijtimoiy ta'minot hamda ijtimoiy madad olish huquqini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash, og'ir hayotiy aholviga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofig ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'iga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Aholini ijtimoiy himoyalash – davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan muassasalar, ish beruvchilar va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, aholi ijtimoiy zaifligining oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan o'zaro bog'lik huquqiy, iqtisodiy choratadbirlar va kafolatlar tizimidir. Ya'ni ijtimoiy himoya bu ma'lum bir murakkab, ijtimoiy xavfli vaziyatlarda aholi daromadlarini tutib turish, ayrim ijtimoiy guruhlarga yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan ko'rildigan chora-tadbirlar majmuasidir.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimi zamonaviy iqtisodiyotga xos xususiyat hisoblanadi. U har bir kishining ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, mehnat imkoniyatlardan to'laroy foydalanish va ayni vaqtida jamiyatdagagi barqaror holatni kafolatlash imkonini beradi, "inson salohiyati"ni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Hozirgi sharoitda inson salohiyatdan samarali foydalanishga hamda jamiyatda ijtimoiy tanglik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka aynan shunday erishish mumkin. Bunday muhofaza ta'minlanmas ekan, kishilarning qayta o'qitish, yangilikni o'zlashtirish, ijod qilish kabi mehnat imkoniyatlardan foydalanishi mumkin bo'lmay qoladi. Samarali ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi malakali xodim mehnatiga asoslanuvchi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida aholini samarali ijtimoiy himoyalash bu jamiyatning har bir a'zosiga ma'lum turmush

darajasini, o'z qobiliyatini (mehnat, tadbirkorlik, shaxsiy) rivojlantirish va ulardan foydalanish, u yoki bu qibiliyatlar yo'qotilgan taqqirda (keksalik, nogironlik, kasallik, onalik va bolalik, ishsizlik va boshqalar) kafolatlarni ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan tizimidir.

### Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review).

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy ahamiyatini oshib beruvchi va ushu munosabatlardagi ishtirokchi tomonlarning faoliyi va ahamiyatini yoritib beruvchi bir qator mahalliy va xorijiy mualliflar va manbalar mavjuddir. Xususan, o'zbek iqtisodchi olimlaridan M.Murodov va D.Karimovlar moliyaviy munosabatlarni asosiy jihatdan byudjet va ijtimoiy fondlar asosida ko'rib chiqadi. [1] Aholini ijtimoiy himoyalashda sug'urta tizimi bo'yicha ayrim takliflar mavjud, ammo zamonaviy raqamshtirish va davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining salmog'i ancha pastligiga e'tibor qaratilgan. Ular o'z adabiyotlarida aholining ijtimoiy himoyasi, bandlik, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining iqtisodiy mexanizmlari yoritib berishgan.

Boshqa mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan R.A. Axmedovning fikrlariga ko'ra, aholining ijtimoiy himoyasi uchun davlat budgetidan ajratiladigan moliyalashtirish manbalari tahlili va bunda mahalliy budgetlarning ro'li yuqori ekanligi ta'kidlangan.[2] Olim o'z adabiyotlarida davlat budgeti strukturasi, ijtimoiy sohalar uchun ajratmalar va jamg'armalarning moliyaviy boshqaruvi kabi moliyaviy munosabatlarga ko'proq ahamiyat bergan.

O'zbekistonning yosh olimalardan M.N.Umurzakova o'zining ilmiy adabiyotlarida tibbiy sug'urtani shunday ifodalaydi: "tibbiy sug'urta – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida sog'liqni saqlash sohasidagi jamiyat a'zolari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sug'urta badallarining jamg'arilishi hisobiga sug'urta hodisisi ro'y berganda tibbiy xizmatlar ko'rsatishni kafolatlanishini ifodalaydi".[3]

Aholini ijtimoiy himoyalashda moliyaviy munosabatlarning ahamiyatini tushinib olishda xorijiy iqtisodchi olimlarning o'rganiash natijalari ham ahamiyatli hisoblanadi. Xususan, Guhan, S. o'z tadqiqotlarida aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy zarurligida

davlat, jamaa va xususiy sektorning birlgilidagi ishtirokini ilgari suradi, shuningdek, moliyalashtirishning aralash modellari samaraliroq deb hisoblanadi. [4]

### Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Maqolada O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashda davlat tibbiy sug'urta tizimining zamonaviy imkoniyatlari va rivojlanish muammolarini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud xalqaro va mahalliy tajribalar asosida ijtimoiy himoya munosabatlari tizimi tahlil qilindi.

Deskriptiv (ta'rifiy) yondashuv – aholini ijtimoiy himoyalash tizimini joriy qilishda O'zbekistonda mavjud huquqiy-institutsional muhit tavsiflandi.

Statistik tahlil – mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan xarajatlar asosida mamlakat ijtimoiy tizimi tahliliy baholandi va o'rganildi.

SWOT tahlil – Ijtimoiy himoya tizimidagi moliyaviy munosabatlardagi kuchli, zaif, imkoniyat va xavf omillari baholandi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Aholini manzilli va samarali ijtimoiy himoyalash va ta'minlashda albatta davlat va uning tuzilmalari bir qator masalalarning ham hal etilishini ta'minlaydi. Birinchidan, jamiyat mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga ish joyiga yoki zarur resurslarga ega bo'lish va mehnatga yarasha haq to'lash kafolati ham kiritiladi. O'zbekiston Respublikasida xodimlar uchun mehnat huquqlari va kafolatlarining eng past darajasi qonunlar bilan belgilab qo'yiladi. Qonunlardagi nisbatan qo'shimcha mehnat huquq va kafolatlar boshqa normativ hujjatlar, shu jumladan, shartnomaga yo'sinidagi hujjatlar (jamaa kelishuvlari, jamaa shartnomalari, boshqa mahalliy hujjatlar), shuningdek, xodim va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalari bilan belgilanishi mumkin.

O'zbekistonda barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanshda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeい, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamaat birlashmalariga mansubligi, shuningdek, xodimlarning ishchanlik qobiliyatlarini va ular mehnatinining natijalariga aloqador bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlар sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, mehnat va mashg'ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki yuqoriroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar (oilavli vazifalarni bajarish bilan band bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va boshqalar) to'g'risidagi alohida g'amxo'rlik bilan bog'liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek ularni cheklash kamsitish deb hisoblanmaydi. [5]

Ikkinchidan, jamiyat davlat organlari tizimi va boshqa ijtimoiy tuzilmalar orqali ish kuni, ish haftasi, ish yili tartibini, yuqori mehnat samaradorligi bilan uzoq muddatli mehnat qobiliyatini saqlash uchun qulay shart-sharoitlarni qonunchilik yo'li bilan hamda boshqacha ijtimoiy himoyalashni kafolatlaydi.

### Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining statistik tahlili<sup>1</sup>

Yil	Ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'	Budjetdagi ulushi (%)
2020	20	24%
2022	26	27%
2024	34	30%

Yuqorida statistik tahlil ma'lumotlaridan shuni olish mumkinki, 2020-yilda mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining budjetdagi ulushi 24%ni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 27%ga va 2024-yilga kelib 30%ga yetgan. Bu ko'rsatkichning o'sish dinamikasi mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashning qamrov darajasi oshayotganligidan dalolat beradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashda moliyaviy munosabatlari — bu ijtimoiy himoya tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, aholining turli qatlamlari, xususan, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bo'lgan guruhlari qo'llab-quvvatlash va ularga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni taqdim etish bilan bog'liq munosabatlarni ifodalaydi. Bu tizimda davlatning roli katta, chunki u o'zining moliyaviy resurslari orqali aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga harakat qiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish keksalik, mehnat qobiliyatini yoki boquvchisini yo'qotishdan sug'urta tizimi (pensiya ta'minoti, shu

jumladan, xususiy pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalarga nafaqalar), vaqtincha ishamayotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik bo'yicha nafaqa), aholining ayrim toifalariga ularning moddiy ta'minoti va xizmatlarini hisobga olib imtiyoz va afzalliklar berish (patronaj xizmatlar shaklidagi ijtimoiy yordam, oziq-ovqat, yonilg'i berish va boshqalar), onalikni muhofaza qilish (tug'ishdan oldingi va tug'ishdan keyingi ta'llarni berish), sog'lijni sug'urta qildirish (tibbiy sug'urta, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qtganlik nafaqasi), o'quvchi yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash (stipendiyalar), nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni reabilitasiya qilish, protez-ortopediya markazlari) orqali ta'minlanadi.

Davlat aholini ijtimoiy himoyalash darajasini qonunchilik va qonun asosidagi hujjatlar orqali boshqaradi, tirikchilik qilish uchun zarur minimum darajasini belgilaydi va uni nazarda tutib, mehnatga to'lanadigan haqning eng kam midqorini, ijtimoiy to'lovlarini, sug'urta badallarini va ijtimoiy yordam (imtiyozlar) turlarini belgilaydi, ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ammo, davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini boshqarishdagi eng muhim roli qo'shimcha ish joylarini, shu jumladan, nogironlar uchun ham ish joylarini tashkil etish, aholiga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka darajasini oshirishdagi yordamidan rag'batlantirishdadir.

### Aholini ijtimoiy himoyalashdagi moliyaviy munosabatlarning SWOT(kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdидlar)-tahlil<sup>2</sup>

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
<b>Davlat tomonidan kafolatlangan tizim</b>	Sug'urta madaniyatning pastligi
<b>Budjet orqali doimiy moliyalashtirish</b>	Mahalliy darajadagi moliyaviy mustaqillik past
<b>Imkoniyatlar</b>	Rasmiy boshqaruvning to'la joyi etilmaganligi
<b>Raqamli texnologiyalar orqali nazorat</b>	Budjet definitsining ortishi
<b>Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish</b>	Absolymiq qurish darajasi
<b>Xalqaro dömler bilan hamkorlik</b>	Nesoniq iqtisodiy shartni (inf'vatissiya, xavf)

Amalga oshirilish usuliga qarab ijtimoiy siyosatni aktiv va passiv turlarga ajratish mumkin. Passiv ijtimoiy siyosat narxlarini sun'iy ravishda tutib turish, shu hisobiga turmush darajasini oshirish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy muhofazalashning barcha yo'nalishlari bo'yicha dotasiyalarni oshirishni ko'zda tutadi. Aktiv siyosat maqsadga muvofiqroqdir. Unda tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berish, pensionerlar, nafaqaxo'rlar, bolalar, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashda davlatning rolini oshirish ustuvor maqsadlar hisoblanadi. Shu bilan birga quyidagi kafolatlar ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlariga aylanadi:

- mehnatga layoqtilar uchun ish (ishsizlikdan himoya qilish);
- mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar bilan ta'minlash;
- mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida normal turmush darajasini ta'minlash (bunga asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo, oziq-ovqat mahsuloti iste'moli ham kiritiladi);
- turar joy, madaniy va sog'lijni saqlash xizmatlarini minimal teng me'yorda ta'minlash;
- zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotga ega bo'lish.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi, uni rivojlantirish istiqbollari va qaror topish bosqichlarini shakllantirishda demografik vaziyatning aholini va mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ham nazarda tutish kerak. Masalan, O'zbekistondagi demografik vaziyatning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu yerda aholining yarmidan ko'prog'i mehnatga layoqatlari hisoblanadi. Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining yosh guruhlari bo'yicha tarkibi: mehnatga layoqatlari yoshdan kichiklar – 11,8 mln kishi (32,1 %), mehnatga layoqatlari yoshdagilar – 20,7 mln kishi (56,3 %), mehnatga layoqatlari yoshdan kattalar – 4,3 mln kishi (11,6 %)ni tashkil etmoqda. [6] Mehnatga layoqatlari yoshga yetmagan aholini ijtimoiy himoyalash shaxsning bozor sharotlari moslashish imkonini normal jismoniylar hamda ma'naviy rivojlanishini ta'minlashi kerak. Ijtimoiy himoyalashning asosiy tamoyili – har bir individga yoki oilaga yordamni faqat ularning daromadi, farovonlik darajasi, ijtimoiy foydali sifati va davomiyligini baholash asosida ko'rsatishdir. Tizim kambag'allik chegarasidan tashqaridagi yashovchilarni qo'llab-quvvatlashi, ularga yordam ko'rsatish va ayni payt fuqarolikning keksayganda va mehnat qibiliyatini yo'qtiganda o'z ijtimoiy muhofazalarini ta'minlashga intilishlarini rag'batlantirishi kerak.

Ijtimoiy himoyalashning sog'lijni muhofaza qilish munosabatlidi islohoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida amalga oshirilishi va bosqichma-bosqich joriy etiladigan sug'urtali tibbiyotga o'tishni nazarda

tutishi kerak. Sug'urtali tibbiyotning joriy etilishi davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan hamda mustasnosiz barcha turdag'i tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan davlat sog'liqni saqlash xizmati mayjud bo'lishini inkor etmasligi kerak. Bu xizmatning mavjud bo'lishi eng nochor aholi qatlами ma'lum darajada muhofazalash imkonini beradi. Shu munosabat bilan, prezidentimiz Sh.Mirziyayev tashabbusi ostida 2024-yil 5-sentabrd'a "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, davlat tibbiy sug'urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish va dori vositalarini taqdim etish davlat budgetiga to'lanayotgan soliqlar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda aholidan davlat tibbiy sug'urtasi uchun qo'shimcha to'lov undirilmasligi belgilab qo'yilgan.[7]

#### Xulosa (Заключение/Conclusion).

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, aholini ijtimoiy himoya qilish – davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy himoyalash tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaning har safar, o'zi amal qilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi tomonidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanadi va hozirgi zamondagi talablari asosida rivojlanib boradi. Ijtimoiy himoyalashning "Iqtisodiyot inson uchun" tarzida bo'lishi lozim bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga o'tishi uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat salohiyatidan, uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat'iy nazar, undan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson salohiyatidan samarali foydalanishga hamda "ertangi kunga ishonch" bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Murodov M., Karimov D. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Axmedov R.A. va boshq. Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalar. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2023.
3. Umurzaqova M.N. Ijtimoiy sug'urta. – T.: "Bookmany Print", 2023.
4. Guhan, S. (1994). Social Security Options for Developing Countries. International Labour Review.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, 4-moddasi. 30.04.2023. <https://lex.uz/uz/docs/-6257288>
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi PQ-311-sonli "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/7098084>
8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi. [www.ihma.uz](http://www.ihma.uz)